



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 2-dekabr, seshanba,
137 (24.167)-son

O'zbek xalq
maqoli

Quloqdan
kiran sovuq
so'z ko'ngila
borib muz
bo'lar

Toza havo bo'yicha ekologik nazorat

Kun mavzusi



**Davlat rahbarining yoshlar
masalasiga e'tibori,
ularga bildirilgan ishonch
faoliyatimizning asosi
sifatida xizmat qilmoqda.**

Prezidentimizning Samarqandga tashrifi davomida yoshlar bandligini ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, ularni kasbga yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash borasida belgilangan vazifalar yuzasidan o'z fikrlarimni bildirdim. Hududlarda tegishli tashkilotlar, jumladan, Yoshlar masalalari bilan ishlash bo'yicha respublika va viloyat komissiyasi bilan hamkorlikda ishsiz yoshlarni band qilish va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilgani ayni muddao. Viloyatda jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha namunaviy ish rejasi ishlab

Jumladan, Samarqand shahridagi "Jomboy yashil chiroqlari" mas'uliyati cheklangan jamiyati bir necha yil oldin to'liq ko'mir yoqilg'isiga o'tgan va atmosferaga zarar yetkazmasdan mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini joriy etgan.

- Hozirda kuniga 120 tonna ko'mir yoqamiz va 700 tonna sement ishlab chiqaramiz, - deydi jamiyat rahbari Faxriddin Jo'rayev. - Buning uchun Xitoydan qariyb 3,7 milliard so'mga 2000 ga yaqin havo tozalash filtrlari olib kelib o'rnatdik. Bu qurilmalar havoga tashlanmalarni 99,4 foizgacha tozalaydi va har olti oyda filtrlarni yangilaymiz. Shu tariqa atmosferaga zararli tashlanmalar chiqarilishining oldi olinmoqda.

UzBAT Samarqand filialida "Ridal" kompaniyasining 20 dan ortiq ultra zamonaviy havo tozalash filtrlari o'rnatilgan. Fabrikadagi yoritish tizimlari to'liq quyosh panellari yordamida ishlaydi, oqova suv ham to'liq qayta ishlanadi. Respublikamizdagi mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan yangi va zamonaviy uskunalar yordamida 4 bosqichli havo tozalash uskunalar o'rnatilgan. Joriy yilda ekologiyani asrash va yashil iqtisodiyotga qo'shgan hissa uchun kompaniyaga yangi tashkil etilgan IREC yashil energetika sertifikatini topshirilgan. Bu qurilmalar va ishlanmalar atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarni 99 foizgacha kamaytirish imkonini beradi.

Navbatdagi nazorat tadbirlari "TXT group" kompaniyasi tomonidan qurilayotgan "Sohil" turarjoy maskanida o'tkazildi.

- Bu yerda 21 ta blokda 850 ta xonadon uchun mo'ljallangan ko'p qavatli uylar qurilmoqda, - deydi "TXT group" kompaniyasi ish yurituvchisi Farzod Ergashev. - Jami 7 gektardan iborat maskanning 35 foizi yashil hududga mo'ljallangan, har bir uyning tomiga 70 kVt quyosh panellari o'rnatish, yo'laklarni to'liq muqobil energiya asosida yoritish belgilangan. Qurilish jarayonida havoga chang ko'tarilishining oldini olish uchun ob'ektlar atrofiga suv sepiladi, mashinalar changdan tozalani, keyin ko'chaga chiqishga ruxsat beriladi.

Nazorat tadbirlari davomida sanoat korxonalarida tozalash filtrlari o'rnatish, ularni vaqtida almashtirish, qurilish inshootlarida chang ko'tarilishining oldini olish, doimiy suv sepirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

Yoshlar bilan ishlashda

Samarqandning o'z tajribasi bo'ladi

chiqib, 15-dekabrqa qadar batafsil hisobot taqdim etilishini va bu Samarqand tajribasi bo'lishini bildirdim.

Davlat rahbarining so'zlari va qo'llab-quvvatlashi mening shaxsiy mas'uliyatimni yanada oshirdi. Endi har bir tashabbus, har bir qaror yoshlarning kelajagiga qanday ta'sir qilishi bilan o'lchanadi. Chunki yoshlar bilan ishlash bu nafaqat xizmat, balki taqdirlarga ta'sir qilish,

kelajakni shakllantirish demakdir.

Prezidentimiz endi qog'ozdagi chiroyli rejalar emas, balki amaliy ishlar va aniq natijalar talab qilinishini ta'kidladi. Biz ham ushbu yondashuvdan kelib chiqib, yangi loyihalar va samarali mexanizmlarni joriy etyapmiz. Yoshlarning bandligi, tarbiyasi, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, jinoyatchilik profilaktikasi va iste'dodlarni qo'llab-quvvat-



lash bular bizning asosiy ustuvor yo'nalishlarimiz bo'ladi.

Dilfuza AZIZOVA,
viloyat yoshlar ishlari
boshqarmasi boshlig'i v.b.

Jamoat transportida yangi bosqich

zamonaviy xizmat va shaffof tizim
yaratilyapti

Viloyatda jamoat transporti tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar sezilarli darajada jonlandi. Ayniqsa, yo'lovchilar uchun qulay, xavfsiz va tezkor xizmat ko'rsatish maqsadida bir qator o'zgarishlar joriy etilmoqda.

Bugungi kunda viloyatda 162 ta tadbirkorlik subyekti 3365 ta transport vositasi bilan, shuningdek, yo'nalishsiz taksi sifatida 70 ta korxona 370 ta yengil avtomashina bilan, 26 ming 347 nafar fuqaro o'zini o'zi band qilgan holda 27 ming 319 ta transport vositasi bilan aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga, 577 ta avtobus, 177 ta mikroavtobus, 1917 ta "Damas" rusumli litsenziyalangan transport vositalari muntazam yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatyapti.



(Davomi 2-sahifada) >>>

**So'nggi vaqtlarda viloyatimiz
elektr energiyasi tarmoqlari
xorijiy kompaniyalar ixtiyoriga
o'tkazilishi va ular tomonidan
boshqarilishi to'g'risidagi xabarlar
fonida ijtimoiy tarmoqlarda
elektr narxi oshishi mumkinligi
haqida turli gap-so'zlar "bolalay"
boshladi. Xorij kompaniyasi
mutaxassislari viloyatimizdagi
tuman va shahar hududiy elektr
ta'minoti korxonalari faoliyatini
o'rganmoqda.**

Prezidentimizning 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra 2025-yil oxirigacha viloyatimizda elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish va xususiy operatorga o'tkazish bo'yicha tender g'olibini e'lon qilish rejalashtirilgan. Loyihaning qiymati dastlab 250 million dollarga baholangan bo'lib, viloyatimizda past kuchlanishli taqsimlash tarmoqlari infratuzilmasini loyihalash, moliyalashtirish, qurish, boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish va taqsimlashni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, Turkiyaning "Akse Enerji" kompaniyasi viloyat elektr taqsimlash tarmog'ini boshqarish va modernizatsiya qilish bo'yicha xalqaro tenderda g'olib chiqqan edi. Kompaniya 30 yillik boshqaruv davomida sohaga 1 milliard dollar

Elektr tarmoqlari xorij kompaniyasiga o'tkazilmoqda Elektr narxi qimmatlashadimi?



investitsiya kiritishni rejalashtirgan.

- Joriy yilning 18-noyabr kuni davlat-xususiy sheriklik (DXSh) bo'yicha uchinchi davra suhbatini chog'ida "Akse Enerji" kompaniyasiga xalqaro tenderda g'alaba qozonganini tasdiqlovchi hujjat taqdim etildi, - deydi «Hududiy elektr tarmoqlari» boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Alvar G'aybullayev. - Loyiha Samarqand viloyatidagi elektr taqsimlash tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ularni konsessiyaga berishni nazarda tutadi. Bir yilda energiya iste'moli taxminan 5,5 milliard kVt/soat va aholisi 4,3 million bo'lgan mazkur viloyat sanoat, ta'lim va

turizm nuqtai nazaridan eng strategik mintaqalardan biri hisoblanadi. Kompaniya o'z tajribasi va tezkor moslashuvchanligi bilan 30 yillik investitsiya davrida uzluksiz elektr ta'minoti, zamonaviy infratuzilma va ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan modelni yaratishni niyat qilgan.

"Akse Enerji" kompaniyasi 1960-yilda tashkil etilgan "Kazanci Holding" tarkibiga kiradi. Ushbu xolding nafaqat energetika masalalari bilan, balki qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida ham qator loyihalar ustida ish olib boradi. Bugungi kunda ularning loyihalari asosida dunyoning bir qancha mamlakatlarida, jumladan, Turki-

yadan tashqari Gana, Madagaskar, Mali va Kongo davlatlarida elektr stansiyalarini qurmoqda. Kompaniya faoliyati yurtimizda ham begona emas, ular 2022-yilda Buxoro viloyatida quvvati 270 MVt, Toshkentda quvvati 240 MVt bo'lgan issiqlik elektr stansiyalarini qurib foydalanishga topshirgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida quvvati 400 MVt bo'lgan gaz porshenli elektr stansiyasi qurilishiga 250 million dollar sarmoya kiritgan.

«Akse Enerji» kompaniyasi tarmoqlarni 30 yil davomida boshqaradi va muddat shartlar bajarilishi asosida uzaytirilishi ham mumkin. Agar loyiha samarali davom etadigan bo'lsa, barcha hududlardagi elektr tarmoqlari bosqichma-bosqich xususiy boshqaruvga o'tkaziladi.

DXSh asosidagi rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari natijasida elektr tarmoqlari, transformator stansiyalari va nimstansiyalarni yangilash, davlat xarajatlarini qisqartirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, energiya yo'qotishlarini kamaytirish, elektr uzilishlarini minimal-lashtirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga yordam berishi ham kutilmoqda.

- Bugungi kunda viloyatimiz elektr tarmoqlarining jami uzunligi 30 ming kilometr dan ortiqni tashkil etib, shundan 16,7 ming kilometr uzunlikdagi tarmoq, ya'ni 54 foizi eskirib ketgan, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ viloyat filiali bosh muhandisi Ilhom Norboyev. - Jumladan, 35-110 kVlik 144 ta podstantsiya, ishlab turgan 10-6/0,4 kVlik 13 172 ta transformator punktidan

Yangi tizim



4512 tasi ma'nan eskirgan. Shuningdek, 54 foiz, ya'ni 128 ta quvvat transformatorini almashtirish talab etiladi. Investor butun tarmoqni boshqarib boradi, ta'mirlaydi va yangi tarmoqlar quradi. Natijada ular tarmoq orqali o'tayotgan har bir kVt/soat elektr energiyasi uchun ma'lum summa oladi. Iste'molchi esa ishlatgan elektr energiyasi uchun mobil ilovalar orqali hozirgidek haq to'lashda davom etaveradi. Shunchaki, ular to'layotgan mablag'ning bir qismi tarmoqni boshqaruviga investor hisobiga tushadi.

Energetika vazirligi ikki yil ichida mamlakatimiz energetika tizimining barqaror va uzluksiz ishlashiga erishishni maqsad qilgan holda ishlab chiqarish quvvatlarini keskin oshirish, to'liq raqamlashtirish, uzatish tarmoqlarini boshqarishga xususiy operatorlarni jalb qilishni rejalashtirgan.

Davlat xususiy sheriklik dasturiga ko'ra, 2027-yil 1-iyulgacha barcha hududlardagi taqsimlovchi elektr tarmoqlarini xususiy operatorlarga o'tkazish bo'yicha shartnomalar imzolalanishi kerak. Bu borada Samarqand tajribasi birinchi bo'ldi, endilikda Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qurish va xususiy sektor boshqaruviga berish bo'yicha tender e'lon qilinadi.

Dilmurod TO'XTAYEV,
"Zarafshon" muxbiri.

Prezident tashrifidan so'ng

Taassurot,
xulosa va
vazifalar

Davlatimiz rahbarining hududlarga tashriflarini muntazam kuzatib boramiz. Albatta, bunday tadbirlar birdan yuzaga keladigan vaziyat emas. Tashrif dasturidan tortib, boriladigan har bir obyektgacha qancha tayyorgarlik, qancha mehnat va vaqt talab etadigan jarayon.

Bizningcha, Prezident tashriflarining asosiy e'tiborli va ahamiyatli jihati odamlarni rozi qilishdek ezgu g'oyani faoliyati a'moliga aylantirgan Shavkat Mirziyoyevning odamlar bilan samimiy, ochiq muloqot qilishida bo'lsa kerak.

Azim Samarqandga bu galgi tashriflarida ham aynan shu jihat yorqin sezildi, desak mubolag'a emas. Tashrifining amaliy natijalaridan biri — "Samarqand – Urgut" yangi temiryo'l tarmog'ining ishga tushirilishi bo'ldi, deyish mumkin.

Davlatimiz rahbari o'zlarining tashabbusi va g'oyasi asosida barpo etilgan yangi 55 – kilometrlik temir yo'l orqali, viloyat nuroniylari va jamoatchiligi vakillari bilan suhbatlashib, Urgut tuman markaziga kirib keldi.

Davlatimiz rahbari ko'pchilikka nomi yaxshi tanilib ulgurgan "Ferre Group" korxonasining maishiy texnika ishlab chiqarish loyihasi faoliyati bilan tanishdi, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatdi. Korxona bugun nafaqat viloyatning, balki mamlakatimizning maishiy texnika va zamonaviy temir eshiklar ishlab chiqarish bo'yicha yirik kompaniyasi. Tayyorlanayotgan mahsulotlar Markaziy Osiyo davlatlari va qardosh Ozarbayjon davlatiga eksport qilinmoqda.

Albatta, keyingi yillarda viloyatda erishilgan barcha ijobiy yutuq va o'zgarishlarni davlat rahbari belgilab bergan vazifalar ijrosini ta'minlash bilan bog'liq tashkiliy, texnik, moliyaviy mexanizmlar yaratilgani bilan izohlasak, adolatli bo'ladi.

Erishilgan bu marralar bilan kifoyalانب bo'lmaydi. Tashrif davomida kelgusi yil Urgut tumanidagi mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun 260 milliard so'm ajratilishi belgilangani aholining turmush sharoitiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tinchlik mahallasida logistika markazi qu-rish uchun 5 gektar yer ajratilmoqda. Agar infratuzilmaga 5 milliard so'm sarflansa, 100 ga yaqin do'kon, oshxona va servis obyektlari tashkil qilishga qiziqish bildirgan tadbir-korlar juda ko'p. Bu esa yuzlab ish o'rnlari degani.

Qisqasi, Prezidentimizning Samarqandga tashrifi, bildirgan taklif va topshiriqlari viloyatdagi islohotlarning navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Biz xalq vakillari sifatida ushbu mas'uliyatli jarayonda faol ishtirok etib, viloyatimizning har bir tumanida yuksak natijalarga erishishga bel bog'laymiz.

**Ilhom BOTIROV,
O'zLiDeP viloyat kengashi raisi, xalq deputatlari
viloyat Kengashi deputati.**

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

BRUTTO-SHARTNOMASI O'ZINI OQLAYAPTIMI?
Jamoat transporti xizmati sifatini yaxshilash va aholiga qulaylik yaratish maqsadida avtobuslar brutto-shartnoma tizimi bo'yicha ishlashga o'tkazilmoqda. Jumladan, Samarqand shahrida shu tizim yo'lga qo'yilgan. Brutto-kontrakt tizimi tashuvchi korxona va nazorat qiluvchi organ o'rtasida tuziladi. Bunda tashuvchi korxonaga jamoat transportiga qo'yilgan talablarni, ya'ni yo'nalish chizmasiga to'liq rioya qilish, yo'lovchilarga sifatli xizmat ko'rsatish, oraliq intervalga amal qilish, ish boshlanishi va tugashi tartibini bajarish vazifasi yuklatiladi.

– Jamoat transportida avtobuslarning yangilanishi hamda xizmat sifatining oshirilishi natijasida Samarqand shahrida bir kunda 200 mingga yaqin yo'lovchiga transport xizmati ko'rsatilmoqda, – deydi viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Ravshan Tojiyev. – Xususan, boshqarmamiz muassisligidagi "Samarqandyo'lovchi-trans" davlat muassasasi balansidagi 100 ta elektrobus brutto-shartnomasi asosida to'qqiz yo'nalishga biriktirilgan. Shuningdek, Samarqand shahrida "Tramvay liniyalarini ekspluatatsiya qilish direksiyasi" davlat korxonasi 2 ta yo'nalishda, ya'ni 1-sonli "Temiryo'l vokzali–Sartepa massivi" va 2-sonli "Temiryo'l vokzali–Siyob bozori" yo'nalishlari orqali yo'lovchilarga xizmat ko'rsatmoqda.

Korxona tomonidan joriy yilning bugungi kuniga qadar 2 million 500 mingga yaqin yo'lovchi tramvaylar xizmatidan foydalandi. Hozirda Samarqand shahar avtobus yo'nalishlaridan 22 tasi tender tanlovlari asosida xizmat ko'rsatish istagini bildirgan tashuvchilar bilan brutto-shartnomasi imzolandi. Tizim asosida faoliyat ko'rsatayotgan tashuvchilar tegishli xizmatlari uchun moliyalashtirilmoqda. Ushbu avtobuslarda yuzaga kelayotgan muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish, tashuvlarda sifat darajasini ko'tarish maqsadida "Yo'lovchi tashishni monitoring va nazorat qilish" davlat muassasasining ishonch telefonlari ishga tushirilgan.

Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 33 yilligi oldidan

Ma'muriy jazo tayinlash
qonun talabiga qat'iy rioya etishni talab qiladi

Mamlakatimizda har bir qonun hujjati Konstitutsiyamiz talablari asosida qabul qilinadi va jamiyat taraqqiyotiga, xalqning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalashga qaratiladi. Misol uchun, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Buni Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 3-mod-dasi mazmun-mohiyati ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Unga ko'ra, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik qonuniylik, fuqarolarning tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi.

Shu o'rinda aytish kerakki, tegishli vakolatli organlar va mansabdor shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralarini o'z vakolatlari doirasida, ish yuritish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradilar. Aks holda, qonun talabining buzilishi ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorning bekor qilinishiga asos bo'ladi.

Masalan, yaqinda sud tomonidan Kadastr agentligi Qo'shrabot tumani bo'limi boshlig'ining huquqbuzar O.Omonqulovga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarori bekor qilindi va bu ma'muriy ish qayta ko'rib chiqish uchun Kadastr agentligi tuman bo'limiga yuborildi.

O'z navbatida, sudning ushbu qaroriga nisbatan Kadastr agentligi tuman bo'limi tomonidan keltirilgan kassatsiya tartibidagi shikoyat Samarqand viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atida ko'rib chiqildi, sudning qarori qonuniy va asosli deb topilgani bois o'zgarishsiz qoldirildi.

Xo'sh, aslida qanday ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgandi? Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'ining O.Omonqulovga ma'muriy jarima qo'llash to'g'risidagi qarori nega bekor qilindi?

Bu haqda batafsil fikr yuritadigan bo'lsak, O.Omonqulov Ergash Jumanbulbul nomidagi massivda joylashgan 66 kvadrat metr yer maydonini o'zboshimchalik bilan egallab oladi va qurilish ishlarini amalga oshiradi. Ushbu qonunbuzilish holati Kadastr agentligi tuman bo'limi yetakchi inspektori Z. Xonkeldiyeva tomonidan shu yilning 23-may kuni o'tkazilgan o'rganish jarayonida aniqlanadi. Shu sababli O.Omonqulovga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma rasmiylashtiriladi. Shundan so'ng ushbu bayonnomaga asosan, Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'ining qarori bilan O.Omonqulovga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 60-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari – 75 million so'm jarima jazosi tayinlanadi.



O'z navbatida, O.Omonqulov Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 315-moddasi tartibida sudga ariza bilan murojaat qilib, Kadastr agentligi Qo'shrabot tumani bo'limi tomonidan 75 million so'm jarima jazosi qo'llanilgani, ammo doimiy daromadi yo'qligi, oilaviy sharoiti og'irligi, qaramog'ida voyaga yetmagan farzandlari borligini qayd etib, jarima miqdorini kamaytirib berishni so'ragan.

Sud tomonidan ushbu ariza yuzasidan "E-Ma'muriy ish" yagona axborot tizimiga kiritilgan hujjatlar o'rganilganida, Kadastr agentligi tuman bo'limi tomonidan ish yuritish qoidalari jiddiy ravishda buzilganligi aniqlandi.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi 431-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqida"gi Nizomning 26-bandida vakolatli organlar tomonidan huquqbuzarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks talablari buzilganligi haqida belgilangan shakldagi ma'muriy bayonnoma yoki ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida planshet yoki kompyuter yordamida "E-Ma'muriy ish" tizimi orqali rasmiylashtirilishi belgilangan.

Shuningdek, Nizomda ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror "Fuqarolarning biometrik hujjatlari elektron tizimi" yoki daktiloskopik taqqoslash yoxud multibiometrik identifikatsiya qilish dasturlari orqali huquqbuzarning shaxsini aniqlagan holda elektron raqamli imzo yoki elektron grafik imzo hamda QR kod bilan tasdiqlanishi shartligi belgilab qo'yilgan.

To'g'ri, Kadastr agentligi Qo'shrabot tumani bo'limi yetakchi inspektori Z. Xonkeldiyeva tomonidan 2025-yil 23-may kuni tuzilgan ma'muriy

huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma pdf formatida skaner qilingan va tizimga kiritilgan.

Ammo qoidaga xilof ravishda xuddi shu sana bilan "E-Ma'muriy ish" tizimiga PSAM 2524104317887 raqamli boshqa bir ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ham yuklangan.

Bundan tashqari, ushbu ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 281-moddasi talablariga zid tarzda rasmiylashtirilgan. Chunki bayonnomada huquqbuzarlikning asl mohiyati ko'rsatilmagan. Bunisi yetmaganidek, bayonnoma 2025-yilning 23-may kuni rasmiylashtirilgan bo'lsa-da, besh oy oldingi muddat qo'yilgan.

Buning ustiga vakolatli shaxs Z.Xonkeldiyeva bayonnomani shaxsan o'zi tuzganligini elektron raqamli imzo yoki elektron grafik imzo bilan tasdiqlamagan.

Shuningdek, huquqbuzar bayonnoma bilan tanishtirilib, roziligi qayd etilmagan.

Eng ajablanarlisi, yuqorida qayd etilgan kamchiliklar Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'ining ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorida ham o'z ifodasini topgan.

Sud ishni ko'rish chog'ida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 319-moddasi ikkinchi qismidagi "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshiradi" degan qat'iy talabga tayandi.

Kadastr agentligi tuman bo'limi yetakchi inspektor tomonidan tuzilgan ana shu ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomani ko'rib chiqishda amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 303, 303-1, 307 va 309-moddalari talablariga rioya qilmagan.

Nega deganda, O.Omonqulovning Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 60-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir qilgan yoki sodir qilmaganligi aniqlanmagan. Ichki ishlar idoralarining ma'muriy javobgarlikka tortilayotgan shaxsning ilgari ma'muriy javobgarlikka tortilganligi fakti mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma ilova qilinmagan. Kadastr agentligi tuman bo'limi boshlig'i ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma va ishga oid boshqa materiallar to'g'ri tuzilgan-tuzilmaganligi haqidagi masalani hal etmasdan turib, ma'muriy jarima qo'llash to'g'risida barvaqt qaror chiqargan.

Shuning uchun sud Kadastr agentligi Qo'shrabot tumani bo'limi boshlig'ining 2025-yil 10-iyundagi ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorini bekor qildi. Ishni qayta ko'rib chiqish uchun Kadastr agentligi tuman bo'limiga yubordi. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasiga yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritildi.

Bularni bayon etishdan maqsad shuki, har bir jazo chorasi qonuniy, asosli va adolatli qo'llanishi kutilgan natijani beradi. Buni hech qachon unutmaslik kerak.

**Bahodir AHMEDOV,
jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shrabot tumani
sudi tergov sudyasi.**

Jamoat transportida
yangi bosqich
zamonaviy xizmat va shaffof tizim yaratilyapti

YANA 250 TA ELEKTROBUS OLIB KELINADI
Samarqand - Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining "Yashil shaharlar" dasturiga qo'shilgan shahar hisoblanadi. Mazkur loyiha doirasida Samarqand shahar jamoat transporti yo'nalishlarida elektrobus olib kelinib, yo'nalishlarga chiqarilmoqda. 2026-yil yakuniga qadar Samarqandga yana 250 ta elektrobus olib kelish rejalashtirilgan va bu borada xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar olib borilmoqda. Buning natijasida shahardagi 21 ta yo'nalishga tender o'tkazilib, cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar tashish bosqichma-bosqich brutto-shartnoma asosida xizmat ko'rsatilishi ta'minlanadi.

ELEKTRON TO'LOV ORQALI AVTOBUSLARDA TEJAMKORLIK VA QULAYLIK YARATILMOQDA
Samarqand shahrida jamoat transportida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yo'lovchilar uchun qulay va zamonaviy sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, yo'lkira haqini to'lash amaliyotida elektron va naqd to'lov tizimlari joriy qilinib, naqd to'lov 3000 so'm, elektron to'lov esa 2000 so'm etib belgilandi.
Elektron to'lovlar bank kartalari hamda ATTO yagona transport kartasi orqali amalga oshiriladi.
– ATTO kartasi foydalanuvchilari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, yo'lovchi birinchi avtobusga 2000 so'm, ikkinchi avtobusga 1000 so'm to'laydi, uchinchi va to'rtinchi avtobuslarda esa bepul harakatlanishi mumkin va validatorga kartani ko'rsatish kifoya, – deydi viloyat transport boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Sherzod Xalilov. – Bank kartasi yoki ATTO

kartasi bo'lmagan fuqarolar uchun shahar bo'ylab bekatlarga yaqin joylarda infokiosklar o'rnatilgan bo'lib, ular orqali 2000 so'm evaziga QR-kodli chipta xarid qilish imkoni yaratilgan. Ushbu tizim yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, yo'lovchilar oqimi bo'yicha aniq ma'lumot olish, haydovchilar vaqti va harakatini tejash hamda bekatlarda ortiqcha to'xtashlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jamoat transporti yo'nalishlari raqamli xaritaga joylashtirilib, ATTO mobil ilovasi, 2GIS va boshqa onlayn servislar orqali avtobuslarning real vaqtdagi harakatini kuzatish imkoniyati yaratilgan. Bu esa yo'lovchilarning manzillariga o'z vaqtida va qulay shartlarda yetib borishini ta'minlamoqda.

Jumladan, o'tgan yil oktabr holatiga ko'ra, 558 ming 921 nafar yo'lovchi elektron to'lov tizimidan foydalangan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich joriy yilning shu davrida 3 million 253 mingdan ziyodni tashkil etdi. Shu yilning yakuniga qadar Samarqand shahar jamoat transportini to'liq elektron to'lov tizimiga o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, hozirda shahar atrofi yo'nalishlarini ham elektron to'lovga o'tkazish masalasi bo'yicha takliflar tayyorlanmoqda.

NOQONUNIY FAOLIYAT YURITGAN HAYDOVCHILAR VA KORXONA MAS'ULLARIGA CHORALAR KO'RILDI
Transport nazorati inspeksiyasi avtomobil va suv transportida nazorat viloyat hududiy bo'limi boshlig'i Ergash Murodovning ta'kidlashicha, tashkilot inspektor xodimlari tomonidan joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat hududi bo'ylab yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari bilan birgalikda olib borilgan monitoring davomi-



da 800 ga yaqin reydtadbirlari o'tkazilib, yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanayotgan qoidabuzar fuqarolarga nisbatan 10 mingdan ziyod ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan. Yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanayotgan 46 ta korxona tekshirilib, 487 million so'm jarima tayinlangan.

Bundan tashqari, Jomboy, Nurobod, Paxtachi, Bulung'ur tumanlari va Samarqand shahri hududida katta hajmli va yuk tashuvchi avtotransport vositalarini nazorat qilish maqsadida 3 ta ko'chma tarozi nazorat punkti faoliyat yuritmoqda. Xizmat tekshiruvi davomida 1174 ta avtotransport vositasi ko'zdan kechirilib, 1030 tasida meyoridan ortiq yuklar borligi aniqlangan va transport vositalari vaqtinchalik jarima maydonchasiga qo'yilgan.

Viloyatda jamoat transportini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat yo'lovchilar uchun qulaylik yaratish, balki iqtisodiy samaradorlik, xavfsizlik va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatli. Elektron to'lov tizimining joriy etilishi, brutto-shartnoma asosidagi tizimning ishga tushirilishi, elektrobuslar sonining oshib borishi transport xizmatida ochiqlik, tezkorlik va qulaylikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbiri.**



ZULFIYA mukofoti:

yoʻnalishlar koʻpaygan, iqtidorlilar ham

Bundan bir necha yil avval Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga hujjat topshirganlar orasida zoʻrma-zoʻraki kitob chiqarib, uch-toʻrtta faxriy yorliq yoki viloyat, respublika miqyosidagi toʻrt-beshta tanlovda ishtiroki bilan shu mukofotni olmasam boʻlmaydi, deya mutasaddi tashkilotlar eshigini qoqqanlar koʻp edi.

Bu yil Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etayotgan qizlar bilan suhbatlashar ekanmiz, tamoman oʻzgacha manzaraga guvoh boʻldik. Sababi oddiy, iqtidorli yoshlar safi kengaymoqda, oʻz bilim, iqtidori bilan katta natijaga erishayotganlar koʻpaymoqda. Farzandlari, qizlarining taʼlimiga investitsiya kiritayotgan ota-onalar ham koʻp hozir.

Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga tanlovning bosqichida uning quyi saralashlarida gʻolib boʻlgan 130 nafar xotin-qiz ishtirok etdi.

Mukofot berilayotgan qizlar soni oʻsishi barobarida, ishtirokchilar orasida xorij tillarida oʻz kitoblarini nashr qilgan, xalqaro miqyosdagi tanlovlarda yaxshi natijalarni qoʻlga kiritayotgan yoshlar ham koʻpaymoqda, - deydi viloyat hokimi oʻrinbosari - oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshligʻi Zebo Saidova. - Shu kunga qadar viloyatda 34 nafar qiz ushbu nufuzli mukofot sohibasi boʻldi. Oʻtgan yildan boshlab tanlov ishtirokchilari uchun raqamli texnologiyalar yoʻnalishi ham kiritilib, endilikda qizlar 8

yoʻnalishda oʻz bilim va tajribalarini sinovdan oʻtkazmoqda.

Tanlovda ishtirok etayotgan urgutlik Rayhona Jamolova 10-sinfda tahsil oladi. Hali maktab yoshida boʻlishiga qaramay, Turkiya va Hindistonda boʻlib oʻtgan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etib, xorij tillarida maqolalar chop ettirishga ulguragan. Ishitxonlik Xurshida Rahmonova esa taʼlimning magistratura bosqichida oʻqish bilan bir qatorda tadbirkorlik bilan shugʻullanadi, qator ijtimoiy loyihalarda qatnashib, koʻngilli sifatida jamiyatning faol yoshlaridan biriga aylangan.

Yosh chegarasi oʻzgargani ham tanlovga oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Ishitirokchilar orasida turli tashkilotlarda faoliyat yuritib, allaqachon oʻz sohasida natijaga erishayotganlar ham talaygina.

Mukofotga tanlov jarayonida har bir yoʻnalish boʻyicha alohida komissiya tashkil etilib, ishtirokchilar oʻz faoliyati boʻyicha toʻplagan hujjatlari koʻrib chiqildi, yoʻnalishi hamda Zulfiyanomij ijdosi boʻyicha savol-javob oʻtkazildi.

Gulruh MOʻMINOVA.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAʼVOLAR BOʻLSA

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshboltayevish notarial idorasida marhum Axadov Toxir Zubaydulayevichga (2020-yil 24-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Norqulov Kamoljon Toshboltayevish notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy koʻchasi, 126-uy 4-xonadon.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Nabiyev Pardaga (2024-yil 18-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yoʻli koʻchasi, 18-uy, 51-xona.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hoshimov Gʻolib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Nimatova Mayramga (2021-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hoshimov Gʻolib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Urgut tumani Mergancha massivi, Amir Temur koʻchasi, 65-uy

Bulungʻur tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasida marhum Bilalov Alikulga (2024-yil 19-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Abdurahmonov Elyor Jamshidovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Bulungʻur shahri Mustaqillik maydoni.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Dangalov Alisher Sarabekovichga (2024-yil 6-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 13-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasida marhum Isamidinov Kamaliddinga (2024-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mirzayeva Barno Joʻraqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebunislo koʻchasi, 4-ʻAʻ uy.

BEKOR QILINADI!

Kattaqoʻrgʻon tumanidagi "SAMIRA GREENHOUSE AGRO" masʼuliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307463384) dumaloq muhri va burchak tamgʻasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Xodjiyeva Durdona Ravshanovna va sotib oluvchi Achilova Intizor Ravshanovna oʻrtasida Samarqand tumani Gulobod mahallasi hududida joylashgan "Maishiy xizmat, yengil ovqatlanish va sanoat mollari savdo shoxobchasi binosining qurilish tagidagi maydoni 62,83 kv.m., foydali maydoni 54,19 kv.m.ni tashkil etgan qismi" uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filiali vositachiligidagi 2022-yil 17-mayda oʻtkazilgan toʻgʻridan-toʻgʻri muzokaralar natijasida tuzilgan 109-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomasida asosida 2022-yil 17-mayda tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Xalqaro sharh



OʻGʻIRLANGAN UCHOQ

Yangi asrning boshlarida koʻpchilikning eʼtiborini tortmagan gʻalati voqea sodir boʻldi. Xitoy Fransiyadan xarid qilgan A-320 aerobusi birdan tag-tugi bilan yoʻqolib qoldi. Odatda, sotib olingan yoʻlovchi tashuvchi samolyot tezlik bilan reysga qoʻyilishi va aviakompaniya uchun foyda keltirishi lozim. Ammo bu yap-yangi uchoq biror marta ham koʻkka parvoz qilmadi. Keyin maʼlum boʻlishicha, aerobus xitoylik muhandislar tomonidan kichkina murvatchalarigacha qismlarga ajratilgan va ulardan nusxa olish tadorigi boshlab yuborilgan ekan.

Biz avvalgi maqolalarimizda birida buyuk muqallid Den Syaopinning qanday qilib "Osiyo yoʻlbarslari" sanalmish Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Malayziya singari mamlakatlarning iqtisodiy tizimlaridan nusxa olib, Xitoyda islohotlar boshlagani haqida yozgan edik. Aytish mumkinki, uning ushbu ish usuli davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Endi xitoylik oʻrtoqlar hech tap tortmasdan xorij ixtirolari va texnologiyalarini ruxsatsiz oʻzlashtirishga kirishdi. Sanoat va texnologiyalar josusligi keng yoʻlga qoʻyildi. Shu bilan birga chet ellik olimlar kashfiyoti hamda ixtirolarini sotib olish usullari ham takomillashtirildi. Bu saʼy-harakatlar natijasini bugun koʻrib turibmiz. Xitoy dunyoda AQShdan keyingi ikkinchi superdavlatga aylandi. Bir vaqtlar sobiq SSSRda ham xuddi shunday holat yuz bergandi. Gʻarb sanoatchilari koʻmagi, AQShning "lend-lizi" sharofati va Germaniyadan undirilgan moddiy tovonlar samarasida sobiq shoʻro ittifoqi misli koʻrilmagani yutuqlarga erishib, jahonning ikkinchi kuchli davlatiga aylangandi. Oʻtgan asrning 50-60-yillarida birinchi boʻlib kosmosga chiqib, Amerikaga yetib, hatto quvib oʻtishga bel bogʻlagandi. Shu xususda xalq tomonidan ijod qilingan mashhur bir latifa ham saqlanib qolgan.

Kunlarning birida ishchilar bilan boʻlgan uchrashuvda Xrushchev minbarda turib: - Oʻrtoqlar, tez orada Amerikani quvib yetib, oldinga oʻtib olamiz, - debdi. Shunda ishchilar-biri qoʻl koʻtarib oʻrindan turibdi-da: - Oʻrtoq Nikita Sergeyevich, bunday qilib boʻlmaydi, - debdi.

- Ie, nega?- hayron boʻlibdi Xrushchev. - Axir, oldinga oʻtsak ishtonimizning yirtigʻi koʻrinib qoladi-da, - degan ekan ishchi.

Keling, endi yana aerobus voqeasiga qaytaylik. Taxminan, xuddi ana shu yillarda Xitoy oʻz yoʻlovchi uchoqlarini yaratib, "Boeing"ni sindirar emish, degan gaplar paydo boʻldi. Toʻgʻri, xitoyliklar A-320 ga oʻxshatib oʻzlarining SI-919 samolyotlarini yaratdi. Ammo bu nusxa Yevropa aviasotlarining muvaffaqiyatini takrorlay olmadi. Asosiy buyurtmachilar ham Xitoy aviakompaniyalari boʻlib, ichki yoʻnalishlarda parvoz qila boshladi. Keyingi yillarda Gʻarb mamlakatlari tomonidan taʼminlanib turilgan butlovchi qismlar kamayganligi bois ishlab chiqarish sustlashib qoldi. Sababi Xitoy muhandislar qayta yaratgan butlovchi qismlar texnologik jihatdan mukammal boʻlib chiqmadi. Samolyot tarkibida milliondan ortiq detallar borligini eʼtiborga olsak, yoʻlovchilar xavfsizligi uchun har bir qismning ahamiyati naqadar katta ekanligi oydinlashadi. Oqibatda uchoq belgilangan 6000-7000 kilometr masofaga erisha olmay, maksimal uchish uzoqligi 5000 kilometrardan oshmadi. Sababi, samolyot motori maʼlum bir muddatdan soʻng keskin qiziy boshladi. Holbuki, Yevropa aerobuslari zarur boʻlgan hollarda meʼyordan ikki baravar uzoqroq masofaga uchish qobiliyatiga ega. Natijada Xitoy aerobuslariga mamlakatdan tashqarida xaridor deyarli topilmadi. Xitoylik aviamaqalidlar keyinchalik A-320 texnologiyalarini asos qilib, A-350 singari keng fyuzelyajli kattaroq yoʻlovchi uchoqni ham yaratishga harakat qilib koʻrishdi. Unga SI-929 deya nom berishdi. Ammo bu galgi urinish umuman muvaffaqiyatsiz boʻlib chiqdi. Chunki oʻrtacha masofalarga 100-200 yoʻlovchi bilan 4000-5000 kilometrga qadar uchishga moʻljallangan uchoq loyihasi 400-500 oʻrinli katta laynarning texnik talablariga mutlaqo javob berolmadi va keyingi yillarda bu boradagi izlanishlar toʻxtab qoldi.

Qizigʻi shundaki, oʻgʻrini qaroqchi uribdi deganlaridek, xitoyliklar Yevropadan oʻzlashtirgan texnologiyalar qandaydir yoʻl bilan rossiyaliklar qoʻliga oʻtib, ular ham oʻzlarining aerobuslarini yaratish payiga tushdi. Ruslar uni MS-21 deb atadi. Samolyotning 100 oʻrinli variantini "Superjet" deb qoʻya qolishdi. Katta dabdaba bilan reklama qilingan superjetlar ketma-ket yuz bera boshlagan aviahalokatlardan soʻng asta-sekin xorijdagi xaridorlarini yoʻqotib, hozirda ichki yoʻnalishlarda foydalanilmoqda, xolos. MS-21ning keyingi taqdiri esa oxirgi xalqaro sanksiyalar oqibatiga hanuz nomaʼlumligicha qolmoqda.

OʻZINGNIKI OʻZINGGA BEGONA

Keyingi yillarda Xitoyning josuslik faoliyatida ilmiy-texnik tijorat texnologiyalari asosiy nishonga aylanib borayotganligi yaqqol koʻrinib qolmoqda. Nyu-York shtatining sobiq mansabdori Linda San va uning turmush oʻrtogʻi Kris Xu Xitoy hukumatidan imtiyozlar olgan holda maxfiy maʼlumotlarini oʻzlashtirishda ayblanmoqda. Bu voqea Xitoy josuslik faoliyatining yangi bosqichi



sifatida baholanmoqda. AQSh strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi maʼlumotlariga koʻra, 2000-2023-yillar orasida Amerikadagi Xitoy josuslik ishlarining aksariyat koʻpchiligi xitoy millatidagi fuqarolar bilan bogʻliq boʻlgan. Ularning 54 foizi harbiy ilmiy-texnik texnologiyalarni, 29 foizi esa tijorat sohasini qamrab olgan. Tadqiqotchi Nikolas Eftimadisning maʼlumotlariga koʻra, josuslik faoliyatining qolgan qismi asosan, yashil energiya, biotexnologiya, aerokosmik ishlanmalar, axborot texnologiyalari va ishlab chiqarish sohaslaridagi yangiliklarni qoʻlga kiritish bilan shugʻullangan. Bunday holatlar koʻproq Kaliforniya shtatida qayd etilgan. Mingga yaqin Nobel mukofotiga sazovor boʻlgan olimlar orasida bor-yoʻgʻi uchta-si xitoylik ekanini eʼtiborga olsak, bugungi Xitoy moʻjizasi tagi boʻsh ekanligi va ixtirolar Gʻarbdan oʻzlashtirilgani ochiq ayon boʻlib qoladi. Keyingi davrda bu borada latifanamo voqealar ham roʻy bermoqda.

Yaqinda xitoyliklar Niderlandiya qurib bergan mikrochip ishlab chiqaruvchi korxonadagi ASML dastgohini buzib qoʻydi. Uni tuzatish uchun Yevropadan mutaxassislar chaqirildi. Ular dastgohni ochib qarashganida avval ham ochib koʻrilgani maʼlum boʻladi. Dastgoh yuragi hisoblanmish ultrabinafsha nurli litografiya markazi shunday moslashtirib qoʻyilgan ekaniki, mabodo kimdir ochildishga urinsa, uskunaning oʻzi markazni ishdan chiqarib, yaroqsiz holga keltirar ekan. Xitoyliklar dastgoh sirini oʻrganish uchun ochib koʻrganlarini tan olmaganlaridan soʻng, niderlandiyaliklar komissiya tuzib, ushbu holatni tekshirmoqchi boʻlishibdi. Ammo xitoylik oʻrtoqlar ularni oʻz zavodlariga kirishlariga ruxsat berishmabdi. Shu xil xatti-harakatlar natijasi boʻlsa kerak, keyingi yillarda xorijiy kompaniyalar Xitoyni tark etib, oʻz korxonalarini Vetnam, Hindiston, Malayziya, Indoneziya singari qoʻshni mamlakatlarga koʻchirmoqda.

Xitoy baribir yuksak texnologiyalar boʻyicha xorijiga qaram boʻlib qolmoqda. Toʻgʻri, qachonlardir Xitoy ham oʻzining murakkab texnologiyalarini yaratar, ammo bu uchun avvalo, maktab yaratilishi, ularda oʻn-yigirma yillab fundamental tadqiqotlar olib borilishi, tajribalar oʻtkazilishi zarur. Bu orada Gʻarb dunyosi ham "qachon Xitoy bizga yetib olar ekan", deb toʻxtab turmasa kerak. Hozir ayrim texnologiyalar bir yilda eskirib qolmoqda. Masalan, Xitoy va Rossiya nodir metallarga boy mamlakatlar hisoblanadi. Aytish mumkinki, ularni rudadan ajratib, tozalab boyitishda bu mamlakatlarga teng keladigani yoʻq. Hatto Amerikada ham bunday texnologiyalar yoʻq. Biroq Gʻarb mamlakatlari ehtiyoj tufayli noyob metallarni qayta ishlash texnologiyasi yaxshi rivojlangan. Noyob metallar hozir hamma jahalarda: aviasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, qoʻyingki, barcha sohalarda keng qoʻllanmoqda. Shu bois ular yaratgan samolyotlar dunyoni aylanib chiqsa-da, qizimaydi. Kichkina dronlari ham 2000-3000 kilometrga uchib zarba bermoqda. Agar eʼtibor berilsa, keyingi paytda bozorimizga katta dabdaba bilan kirib kelgan Xitoy avtomobillarining obroʻsi ancha pasayib qoldi. Sababi yana oʻsha noyob texnologiyalarga borib taqaladi. Bunaqa yuksak texnologiyalarni yaratish uchun esa yuqoridagi yozganimizdek, oliymaqom ilmiy maktablar va ming-minglab oliy saviyali ilmiy xodimlar zarur boʻladi.

DUNYONING ISHLARI

Maqolamiz toʻlasinch Xitoyga bagʻishlangan ekan, bu mamlakatning dunyodagi oʻrni va ahamiyati haqida ham toʻxtalib oʻtsak maqsadga muvofiq keladi. Bugungi Xitoy jahonda har jihatdan AQShdan keyin ikkinchi oʻrinda turuvchi qudratli davlat. Ammo u oʻz qudrati va salohiyatini oqilona namoyon etyaptimi? Baʼzi tomondan bu savol-

ga "ha" deb javob berish mumkin. Ammo ayrim murakkab masalalarda oʻz mavqeyiga yarashmaydigan kuzatuvchilik yoki ochiqdan ochiq noxolislik pozitsiyasida turib kelmogʻda. Toʻgʻri, har bir mamlakatda boʻlganidek, Xitoyning ham davlat manfaatlar borligini hech kim inkor qilmaydi. Lekin dunyoning global muammolari yechimida betaraflik yoki noxolis tomonda turib olish ulugʻ millatning buyuklik maqomiga sira toʻgʻri kelmaydi.

Masalan, hozirgi kunlarning eng dolzarb muammosi Ukrainada tinchlik oʻrnatish masalasi boʻlsa, Xitoy bunda mutlaqo tushu-narsiz siyosat yurgizmoqda. Bir tomondan Ukrainaning hududiy yaxlitligi tamoyilini yoqlab chiqmoqda, boshqa tomondan esa Rossiya qirolli kuchlariga dronlarning butlovchi qismlarini yetkazib berishda davom etyapti. Ayrim maʼlumotlarga koʻra, ular Xabarovskda dron ishlab chiqaruvchi yirik korxona qurilishiga yaqindan koʻmaklashmoqda ekan. Bu borada uning manfaatlar rus hukumatining siyosati bilan hamohang. Ayniqsa, Rossiyaning arzonlashtirib sotayotgan neft, gaz, koʻmir, metall singari xomashyolari Xitoy taraqqiyotining kuchli dastaklariga aylandi. Shu asosda har ikki mamlakat birlashib, goʻyo xalqaro imperia-lizmga qarshi kurashmoqda.

Matbuot xabarlariga koʻra, keyingi paytda Xitoy oʻz oltin zaxirasini boyityapti. Ushbu harakatning ham tub maqsadi xalqaro bozordan AQSh dollarini siqib chiqarishdan iborat ekanligi ochiq aytilmoqda. Bu borada zoʻr berib oʻz atrofiga turli usullar vositasida ittifoqchilarni toʻplamoqda. Bir tomondan yangi-yangi sheriklar topilayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan baʼzilari hafsalasi pir boʻlib, Pekindan uzoqlashmoqda. Shu paytgacha umumiy manfaatlar asosida Xitoy bilan yaqin hamkorlik qilib kelayotgan Pokiston bilan orada biroz sovuqchilik tushdi. Nega desangiz, Pokiston mutaxassislar Xitoydan oʻrganib qaytgan nodir metallarni boyitish texnologiyasi sirilarini amerikaliklar bilan baham koʻrishgani Pekinni gʻazablantirgan. Yaqinda Afgʻoniston-Pokiston chegarasida boʻlib oʻtgan qurolli mojaro ham ana shu sovuqchilikning izʼirini deyishmoqda. Chunki tolibonlar hukumatini bugun Xitoy bilan oʻta yaqin munosabatlarga kirishgan. Bunda xanlarning Xitoydagi dindor musulmonlar boshiga solayotgan jabr-sitamlar ham tolibonlarni zarracha tashvishlantirmayapti.

Xoʻp, bu endi bir-biri bilan zidlashayotgan davlatlar orasidagi munosabat. Biroq quyidagi gaplarga nima deysiz? "Reuters" agentligining xabariga koʻra, AQSh Erinning "Shahed" dronlarini ishlab chiqarishda yordam bergan Ukraina kompaniyalariga qarshi sanksiyalar joriy qildi. Xullas, dunyoning ajabtovur ishlari haqida aytavarsak addo boʻlmaydi.

Lekin shunisi aniqki, jahondagi notinchlik oʻchoqlari olovi zudlik bilan oʻchirilishi lozim. Aftidan, bu harakat oson kechadiganga oʻxshamayapti. Jumladan, rus-ukrain mojarosi haqida toʻxtaladigan boʻlsak, Putin Ukraina bilan tinchlik kelishuvini imzolash niyatida emas. Bu haqda Buyuk Britaniya tashqi ishlar vazirligi maxfiy razvedka xizmati-ning sobiq rahbari Richard Mur "Bloomberg" nashriga bergan suhbatida maʼlum qildi. U bunda bir necha hafta oldin olingan razvedka maʼlumotlariga tayanayotganini bildirdi. Uning aytishicha, "Putin hech qanday kelishuv tuzmoqchi emas. Urush uning uchun faqat hudud masalasi emas, balki hukmronlik masalasi hamdir. U Ukrainani Belarusga oʻxshatib oʻziga tobe davlatga aylantirmoqchi".

Hozirgi kunlarimizdagi vaziyat shundayki, Ukraina tashqi ishlar vazirligi Rossiya bilan tinchlik muzokaralari toʻxtatilganligini eʼlon qildi.

Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi.

3-dekabr – Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kuni

Inklyuziv ta'limda nimalarga e'tibor berish kerak?

Samarqand shahridagi 60-son «Nurli maskan» maktab-internatida «Alohida ta'limga ehtiyojli bo'lgan bolalarning ijtimoiy integratsiyasi: innovatsion yondashuvlar va amaliy yechimlar» mavzusida respublika amaliy o'quv-seminari bo'lib o'tdi.

Tadbir avvalida Ijtimoiy hi-moya milliy agentligi direktori o'rinbosari Usmon Sharifxo'jaev hamda agentlikning viloyat boshqarmasi boshlig'i Sherali Yo'ldoshev alohida ehtiyojli bo-lalar bilan ishlashda zamonaviy pedagogik va psixologik yon-dashuvlarni amaliyotga joriy etish bugungi kun talabi ekanini ta'kidlashdi.

— Alohida ehtiyoji bo'lgan bolalarning ijtimoiy integratsi-yasi zamonaviy ta'limda ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, bolaning shaxsiy rivojlanishi, jamiyatda teng huquqli ishtirok etishi uchun zarur muhit yaratili-shi lozim, — dedi U.Sharifxo'ja-yev. — Jahon tajribasi innovat-sion pedagogik texnologiyalar, individual dasturlar va kompleks yondashuvlar bunday bolalar moslashuvida muhim o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Bugungi seminar pedagoglar va mu-taxassislar malakasini oshirish, innovatsion ta'lim usullarini amaliyotga tatbiq etish ham-da alohida ehtiyojli bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

vazifasi emas. Bunda oila, jamoa, muhit va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Treningda ushbu yo'nalish-dagi amaliy yondashuvlar, mu-loqot usullari, stress holatlarini yengillashtirishga xizmat qiluvchi usullarni o'rgandik va endi olgan bilimlarimizni faoliyatimiz davomi-da qo'llasak, eng katta natija shu bo'ladi.

60-son “Nurli maskan” mak-tab-internati direktori Farangiz Shokirovaning ta'kidlashicha, muassasada inklyuziv ta'lim inno-vatsion yondashuvlar va individual metodikalar asosida rivojlanmoq-da. Jumladan, so'nggi uch yilda muassasa bitiruvchilarining 80 foizi oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilingan va seminarning ushbu maskanda tashkil etilishi bejiz emas.

— Muassasada avval kasb-hunar yo'nalishlari chek-langan bo'lsa, bugun yog'och-ga ishlov berish, to'qimachilik, kulolchilik, qandolatchilik, poyabzalchilik, injiniring, robo-totexnika, 3D modellashtirish kabi o'ndan ziyod yo'nalishda ta'lim yo'lga qo'yilgan, — deydi F.Shokirova. — Shuningdek, 267 nafar o'quvchi uchun indivi-dual rivojlanish xaritalari ishlab chiqilgan bo'lib, shaxsiy ta'lim trayektoriyalari amaliyotga joriy etilgan. Bu pedagoglar mehnati va zamonaviy ta'lim strategi-yalarining samarasidir. Muassa-samizda tashkil etilgan bugungi seminar ham pedagoglar bilan tajriba almashish, yangi g'oya va metodikalarni o'rganish orqali ta'lim tizimini yanada takomil-lashtirishga xizmat qiladi.

Tadbir davomida ishtirokchi-lar Samarqand shahridagi 59 va 60-son «Nurli maskan» mak-tab-internatlari faoliyati hamda o'quvchilar tomonidan tayyor-langan mahsulotlar ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Samarqand muzeylarida

Qur'onning nodir nusxasi

O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi fondida 245 mingga yaqin eksponat saqlanadi va olti mingdan ziyod ashyo ko'rgazmaga qo'yilgan. Ular orasida dunyoga mashhur, noyob eksponatlar ham bor.

Jumladan, muzey ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan yirik Qur'on kitobi hajmi va taxlanishi jihatidan Markaziy Osiyoda eng nodir nusxalardan biri hisoblanadi. Samarqand qozikaloni Mir Nizomiddin Xoja ibn Mir Abdug'affor Xojaning ma'lumotiga ko'ra, ushbu kitob hijriy 1271-yilda (milodiy 1854-1855-yillarda) Buxoro hukmdori Amir Nasrulloh buyrug'i bilan samarqandlik kotib Mullo Hasan Samarqandiy tomonidan (suls xatida Samarqand qog'oziga) ko'chirilgan. Kitobning birinchi betida Amir Temur masjidiga vaqf qilinganligi

yozilgan va keyinchalik Shohi Zinda maqbarasiga o'tkazilgan.

Bu kitob hijriy 1298-yilda (milodiy 1881-1882-yillar) va 1339-yilda (milodiy 1922-1923-yillarda) ta'mirlangan. Ta'mirlash ishlarida Mulla Abdurahman Mirsoliyov, Porsoxoja Tursunxojayev, rangi o'chgan joylarini qayta yozishda mulla Sayfiddin Abdusattorov qatnashgan. 1939-yilda Shohi Zinda maqbarasidan olinib "Samarqand" davlat muzey-qo'riqxonasiga topshirilgan. Qur'on 104x156 santimetr o'lchamda bo'lib, 32 varaqdan iborat. Kitob nomi birinchi betida bo'lib, zarhali harflar bilan bitilgan. Har bir beti bir-biriga ulangan varaqlardan iborat bo'lib, yog'ochdan yasalgan to'rtburchak bo'lmalarga mahkamlangan, burchaklari teri bilan qoplangan.

To'liqin BO'RIYEV, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi bo'lim boshlig'i.

O'qituvchilik - sharaf, maktab - muqaddas

Muallimlik juda qiyin kasb sanaladi. Ko'chada tuzuk yurishni, maktab partasida durust o'tirishni, qalam-ruchka tutishni, daftar va kitoblarni ozoda saqlashni epolmaydigan jajji bolakaydan 11 yil ichida tuppa-tuzuk insonni shakllantirish o'ta mushkul va mas'uliyatli burch. O'z o'rnida buning javobgarligi ham yo'q emas. Yaqin o'tmishning atoqli namoyandasi Abdurauf Fitrat “Hayotimizdagi eng qiyin hamda og'ir masala bola tarbiyasidir”, deb bejiz aytmagan. Allomaning fikriga qo'shiladigan bo'lsak, yaxshi o'qituvchi kelajagimizni kafolatlashni qiyinchiliksiz anglay olamiz. Darvoqe, maktabda a'lo baholarga o'qigan, ustozlarining og'zidan chiqqanini ilib olgan bola, tabiiyki, iqtidoriga qarab, muallimi asos solgan kelajakni boshqaradi.

Jamiyat o'zgarib, odamzodning fe'li torayib borayotgan bugungi davrda o'qituvchilarning zimmasidagi yuk ham oldingisidan besh-olti barobar og'irlashdi. Buni ko'tarish, udda qilish hammaning qo'lidan kelavermaydi. Kasbini hurmat qilgan ustoz-muallimlar kunduzi maktabda jonini jabborga berib, kechasi uyida uyqudan qolib ishlaydilar. Ular o'quvchilarining bi-rorta savoliga javob topolmay qolish-dan xavotirlanib yashashadi. Ba'zan o'ziga, oilasiga, yaqinlariga vaqt ajra-ta olmaydi. Avval-boshda o'qituvchi deganimizning asosiy vazifasi bolani zeriktirib qo'ymaslikdan iboratdir.

Bolaning ko'ngli guldin ham nozik. Ular maktabdan zerikdimi, tamom. Turli bahonalar axtarib, darslardan qochishning, muallimining ko'zidan panaroqda bo'lishning payiga tushib oladilar. Aynan shu pallada ularni yana darslarga qaytarishning, qiziqishlarini tobora orttirishning o'zi bo'lmaydi. Shuning uchun bugungi o'qituvchilarga yetarli shart-sharoit yaratib berish zarur.

Aslida maktab hayoti va bola tarbiyasi azal-azaldan odamzodni o'ylantirib, tashvishlantirib keladi. Shuningdek, bu borada bildirilayot-gan fikrlar, maktablarning imkoniyat-lari ham sira bir-biriga o'xshamaydi. Bugun zamon shiddat bilan o'zgar-moqda. Axborot manbalari ko'payib, turfa fikrlik kuchaydi. Aldanib qolish va osongina aldab qo'yish mezonlari kengaydi. Bugungi yosh avlod mak-tab pedagogik jamoasi oldiga shun-day talab va istaklarni ko'ndalang qo'yadiki, yechimini izlab, boshin-giz qotadi. Buning natijasi o'laroq, o'qituvchilarning bilimsizligi, maktab jamoasining muammolari, ota-onalar bilan doimiy aloqa o'rnatilmaganligi bir zumda sezilib qolmoqda. Aksiga olib, bizni o'rab turgan tabiat ham tobora o'zgarib bormoqda. Shunga o'xshash tahlikali zamonda davr bilan hamqadam bo'laman, deya odamzod esidan og'ishi hech gap emas. Hayotdan orqada qolishni esa kechirib bo'lmaydi. Zamondan, zamondosh-laridan yiroqlashish o'qituvchining zuvalasini buzadi. Maqsadimiz bu sohada yaxshi natijaga erishish ekan, avvalo, o'qituvchilarni bilimli, zukko va tadbirli qilish zarur. Bilim berish deganimiz muallimning salohiyatini, tajribasini, odob-xalqini, yurish-turish madaniyatini ham o'z ichiga oladi, albatta. Bugungi o'qituvchi har bir sohada cheksiz va bepoyon bo'lishi shart. Biz istagan o'qituvchi-lar safi kengaysa, maktablaramizda kelajagimiz uchun foydali muhit yuzaga keladi. Bolajonlarimiz ta'lim dargohlarini, ustozlarini toabab yaxshi ko'rib qolishadi. Maktablarda ilmu qudratga boy manba shakllangandan so'ng tabiiyki, ota-onalar shuurida ham ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Shuncha yutuq va yangilanishlardan keyin muallimlarning qadr-qimmat-i ortib borishi shubhasiz. Masalaning ikkinchi tomoni ham borki, undan juda ehtiyot bo'lish lozim. Bir mak-tabda ishlaydigan o'n nafar o'qituv-chining yutuqlarini ba'zan, xuddi shu maktabdagi birgina o'qituvchining xatosi yoki nojo'ya qilmishi chippaka chiqarib yuborishi bor gap. Bunday



ko'rgulikka duch kelmaslik uchun har bir o'qituvchi o'z atrofini mustahkam himoyalab qo'yishi ayni muddaodir. O'ylik maoshning ko'paytirilishi o'qituvchilarni saralab olish imkoni-yatlarini kengaytirish bilan birga, ularning ko'ngillarini xotirjam bo'lishi-ga, ishiga mas'uliyat bilan yonda-shishiga imkon yaratadi. Aksincha bo'lsa, hayotning achchiq-chuchugi butkul pul bilan o'chanadigan ma-konda o'qituvchilarning ham tashvishi ortib boraveradi. Buni tushunish qiyin emas. Ozgina jiddiyroq e'tibor kerak, xolos. Aslida ro'zg'origa yetadigan maosh bilan ta'minlanishi o'qituvchi-larimizning ijtimoiy-iqtisodiy himoyasi sanaladi. Dilida tuguni, dard-tashvishi bor inson sira o'ziga o'xshamaydi. Bu holat o'qituvchining fe'liga juda tez va og'ir zarbalar berishi, ularni o'z kasbidan sovitishi ham muqar-rardir. Muallim o'z kasbidan sovisa, ta'lim-tarbiya butunlay orqaga ketadi. Savodsizlik boshlanadi. Odamlar cha-lasavod farzandlarini o'qitish uchun oliy o'quv yurtlari eshigiga pul ko'tarib borishni boshlashadi. O'qituvchining oylik ish haqi ro'zg'or tebratishga yet-masa, har qanday jamiyat va davlatda korruptsiya holatlar kuchayadi. Sababi qalbi kemptik ustozdan saboq olgan bolaning ham bilimi ojiz bo'ladi, u jaho-latni kuchaytirish tarafdorlari tomonga o'tib olishi shubhasiz.

Ba'zi maktablarda shunday muhit bor: bola o'qituvchidan cho'chiydi. Nima uchun? Chunki bizda bolaning bilimini baholash mezoni bor. Buni o'zgartirish, zamonga moslash kerak. Ikki baho olgan bola baribir do'stlari ol-dida qisinadi. Ba'zan qalbi beozor bo-laning darslarni o'zlashtirmayotgan-ligini bilgan o'qituvchilar uni keragidan ortiq darajada kamsitib yuborishadi. Muallimning dakkisidan, a'lo baholarga o'qiydigan sinfdoshlarining jizzaki mu-nosabatlaridan "ikkichi" o'quvchi uyala-di. Uyat asta-sekinlik bilan qo'rquvga aylanadi. Qo'rqqan bola maktabga borishni istamaydi. O'qituvchisi oldida bilganlarini aytib berolmaydi. Darsga tayyor bo'lsa-da, yana o'qituvchisidan dakk-i eshitishi mumkinligidan hadiksir-ab yuradi.

Xo'sh, maktab va bola o'rtasidagi bunday nomutanosib muhitdan qan-day qutilish mumkin? Buning uchun har bir sinfda tajribali psixologlar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim. O'qituvchilar ham, ota-onalar ham psixologlar oldida hisobdor bo'lishi shart. O'qituvchining ishiga baho berish yoki uni rag'batlantirishdan avval bevosita maktab psixologining

Muallim mulohazasi

fikr-mulohazalariga ham suyanilsa, foydadan xoli bo'lmaydi. O'z o'rnida psixologlar maktab ma'muriyati va ota-onalarga o'z vazifalari, rejalari haqida axborot berib tursa, maktab hayoti tobora yaxshilanib boraveradi.

O'qituvchining darsdan tashqari paytlarda ham o'quvchilar atrofida ko'proq bo'lishi, ular bilan hayotiy mavzularda tez-tez muloqot qilib turi-shi bola tortinish, cho'chish alomatla-rini yo'qotadi. O'quvchi bilan o'qituv-chining ruhan yaqinlashuvi o'rtadagi har qanday salbiy munosabatlarga chek qo'yadi. Bunday ustozlarni tar-biyalash, ko'paytirish ayni zamondagi ta'lim jarayonining asosiy yo'nalishi bo'lishi lozim. Ushbu yo'nalish o'z o'rnida pedagoglar tayyorlaydigan oliy ta'lim tizimida ham katta o'zgar-ishlar qilinishini talab etadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining kuniga olti-yetti soatlab o'qishini biz zamon, davr hamda ta'lim standartlarining talabi demizm. Aslida darslarning ko'pligi o'quvchilarni sinfga kirishdan bezdirib qo'yishini ham biz ta'lim standarti sifatida ko'rishimiz, buning oldini olishimiz shart. Sinfga majbu-ran kiritilgan o'quvchining ko'ngliga hech narsa sig'maydi. Buning oldini olish borasida men ba'zi bir darslar-ni, hattoki matematika, kimyo, fizika darslarini ham gohida tashqarida – ochiq havoda o'tishni qo'llab ko'rish mumkin. O'ylaymanki, buning foydasi katta bo'ladi va yaxshi natijalarga olib kelishi tayin. Har bitta yangilikda laz-zat bor deganlaridek, bolalar hamisha yangilikka intiluvchan bo'lishadi.

Ta'lim tizimimizda uchraydigan yana bir muammo xom-xatala dars-liklar va o'z ustida ishlamaydigan ustozlar masalasidir. Tasavvur qiling, zamonaviy ta'lim talablariga javob berolmaydigan o'qituvchilar qatoriga savodsizlarcha tayyorlangan dars-liklarni, bolaning maktabga kelmay qolgan kunlarini, ota-onalarning befarqligini ham qo'shadigan bo'lsak, ko'z oldimizda ta'lim tizimining juda katta muammolari paydo bo'ladi. Bola shunday salbiy holat avj olgan maktabdan nimani o'rganishi mum-kin? Menimcha, hech narsani o'rgana olmaydi. Ular maktabni qanday bil-sa, jamiyatni ham xuddi shunday tasav-vur qilishadi.

Sir emas, bugun o'qituvchilarning yarmidan ko'pi uy-ro'zg'or tash-vishlariga ham o'rallashib qolishgan. Ayniqsa, ayollarimiz, opa-singillari-miz. Tabiiyki, oila tashvishlariga duch kelgan ustoz o'zganing bolasiga bilim berishdan ko'ra ko'proq o'zining muammolarini hal qilishni o'ylay-di. Toki muallim va muallimlarning fikr-xayoli faqat maktab va dars jarayoni bilan bog'lanmas ekan, ta'lim tizimining kemptiklarini aslo to'ldirib bo'lmaydi. Ta'lim dargohidagi darslardan qoniqmagan ota-onalar farzandlarini narxi falon millionli repetitorlarga topshirishga majbur bo'lishadi. Buning ustiga, maktab-da to'liq ta'lim olgan o'quvchilardan to'rttaginas, repetitorga qatnaganlar-dan besh-oltitasa oliy o'quv yurtlariga kirs, maktabning, o'qituvchilarning reytingi repetitornikidan ikki-uch barobar pasayib ketadi.

Gapning sarasini aytadigan bo'lsak, bugun ta'lim jarayonida o'zgartirilishi, yangilanishi lozim bo'lgan masalalarning ko'lami an-cha katta. Buning uchun barchamiz, hattoki ota-onalar ham mas'uldirlar. Ta'lim masalasi faqat vazirlikka bog'liq emas. Shuningdek, men oddiy o'qituvchi sifatida arzimagan sabablar bilan maktablarga iddao qilib keladi-gan, o'qituvchilarning hurmat-ozlatini to'kib, haqorat qiladigan ota-onalar-dan ham og'ir-bosiq bo'lishlarini, maktab eshiklarini qattiq yopmaslikla-rini, yetti o'lchab, bir marta kes-ishlarini so'rayman. Siz o'qituvchini qo'llang, u bolangizni savodsizlik gir-dobidan saqlab qoladi. O'qituvchilar hech qachon farzandingizning yomon inson bo'lib tanilishini istamaydi.

Barchinoy SODIQOVA, Past Darg'om tumanidagi 35- maktab direktori, xalq deputatlari Past Darg'om tumani kengashi deputati.



MATBUOT UYI

С АМАРКАНДСКИЙ В ЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 780 nusxada chop etildi. Buyurtma 559. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

T.SIDDIQOV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda